

## “YOLG‘IZLIK” MODERN QISSASIDA RUHIYAT VA VOQEA DIALEKTIKASI

*Uralova Dilnoza Murodilla qizi, FarDu 2-kurs tayanch doktoranti*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Javoxir  
Sayidolimov taqrizi asosida*

### ДИАЛЕКТИКА ДУХА И СОБЫТИЙ В СОВРЕМЕННОЙ ПОВЕСТИ «ОДИНОЧЕСТВО»

*Уралова Дилноза Муродилла кизи, студентка 2 курса базовой  
докторантуры ФарГУ*

### THE DIALECTIC OF SPIRIT AND EVENTS IN THE MODERN STORY “LONELINESS”

*Uralova Dilnoza Murodilla's daughter, FarSU 2nd year basic  
doctoral student*

**Annotatsiya:** U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasida inson ruhiyatining xilma-xil tasviri turli rakurslarda ifodalab berilgan. Adabiyotimizda ruhiyat va voqea munosabati badiiy asarning birlamchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda yaratilayotgan nasriy asarlarning, xususan, qissalarning yutuqlari ruhiyat tasvirining darajasi bilan baholanmoqda, epik bayon roliga e'tibor susayagani ko'rinmoqda. Xususan, realistik qissalarda epik bayon birlamchi bo'lsa, noan'anaviy qissalarda ruhiyat tahlili asosiy o'rinni egallaydi. Ayni shu ikki komponent o'zaro muayyan bog'liqlikda bo'lsada, tasvirda ulardan biri yetakchilik qiladi. U.Hamdamning “Yolg‘izlik” qissasida ruhiyatning ustuvorligi bilan namoyon bo'ladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** ruhiyat, voqea, portret, monolog, dialog, tush, peyzaj, psixologik timsol, ramz, gallutsinatsiya.

**Аннотация:** В рассказе У. Хамдама “Одиночество” с разных сторон выражен многообразный образ человеческой психики. В нашей литературе соотношение духа и события является одной из основных черт художественного произведения. Достижения прозаических произведений, особенно рассказов, оцениваются по уровню душевной образности, и, похоже, внимание к роли эпического повествования ослабевает. В частности, в реалистических рассказах первичным является эпическое повествование, а в нетрадиционных главное место занимает психологический анализ. Хотя эти два компонента связаны друг с другом, один из них доминирует в изображении. В рассказе У. Хамдама “Одиночество” оно проявляется с приоритетом психики.

**Ключевые слова и выражения:** психика, событие, событие, монолог, диалог, сон, пейзаж, психологический символ, символ, галлюцинация.

**Abstract:** In the short story “Loneliness” by U. Hamdam, a diverse image of the human psyche is expressed from different angles. In our literature, the relationship between the spirit and the event is one of the primary features of the artistic work. The achievements of prose works, especially short stories, are being



<https://orcid.org/0009-0009-2662-7868>

+998937981021

[dilnozaqochqorova86@gmail.com](mailto:dilnozaqochqorova86@gmail.com)

evaluated by the level of mental imagery, and it seems that attention to the role of the epic narrative is waning. In particular, in realistic stories, the epic narrative is primary, while in non-traditional stories, psychological analysis takes the main place. Although these two components are related to each other, one of them dominates the image. In the story "Loneliness" by U. Hamdam, it is manifested with the priority of the psyche.

**Keywords and expressions:** *psyche, event, portrait, monologue, dialogue, dream, landscape, psychological symbol, symbol, hallucination.*

## KIRISH.

Yozuvchining ko'pgina nasriy asarlarida modernistik uslubga ko'p murojaat qilgani e'tiborni tortadi. Hayotning chigal jumboqlarini taftish etish, hayotga ilohiy-falsafiy nuqtayi nazardan yondashish, siyratda ayro "tutqun" turmushga ko'nika olmaslik, o'zligini mudom izlash jarayonidagi isyonlar, hayot o'zining chigalliklari, kemptiklari bilan go'zal ekanligini tan olish kabi yangicha tamoyillar ko'zga tashlanadi. Har bir asar ijodkorning iste'dodi, badiiy niyati, dunyoqarashi, uslubiga ko'ra individuallik kasb etadi. Yozuvchining shaxsiyati va adabiy voqelikni tasvirlash uslubi nuqtayi nazaridan asar xarakteri belgilanadi. Shuning uchun "Yolg'izlik" asarini bevosita monologik qissa deb atashimiz mumkin. "Yolg'izlik" qissasi qahramonini shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarda ko'rishimiz mumkin.

- 1) Qahramonning intim hayoti;
- 2) Qahramonning shaxs sifatidagi ijtimoiy hayoti.

Qahramonning botiniy olamida faqat o'ziga mansub qalb izmidagi tovlanishlar, zohiriy olamida esa kundalik turmush tashvishlariga o'ralgan siyrati tasvirlanadi. Bu ikki zohiriy va botiniy olam syujet sathlari bitta nuqtada sintezlashadi va qahramon xarakteri dinamikasida umumiy o'q ildizni tashkil etadi. Qahramon goh aqliga bo'ysunsa, gohida hislariga mag'lub bo'ladi. Ba'zi o'rinlarda ko'ngil aql izmiga bo'ysunmaydi. Ma'lumki, adabiyotimizda ruhiyat tasviri keng qamrovni tashkil qiladi. Inson ruhiyati, uning ongosti kechinmalarini tasvirlash ustuvor belgilardan hisoblanadi hamda ruhiyat tasviri muammosi jahon va o'zbek adabiyotida muhim tadqiqot muammosi sifatida qaralib kelingan. 90-yillardan psixologizmning o'zbek adabiyotida keng qo'llanilishi qissachiligimizda ruhiyat talqinida keng imkoniyatlar ochdi. Inson ruhiyatini tasvirlashning yo'llari juda ko'p va qissada qahramonning ong-u

shuurida kechgan tizginsiz o'ylar o'z ifodasini topadi. Qissada qahramon ismsiz, bu – adibning individual uslubidan darak beradi. Ijodkorning prozaik mahorati "Yolg'izlik" qissasida yorqin aks etgan. Qissa shaklan uch qismdan iborat. Asosiy voqealar ikkinchi qismda aks ettiriladi. Dunyoviy tashvishlar iskanjasiga tushib qolgan qahramon jamiyatdagi muvafaqqiyatlaridan huzurlanib yurgan bir paytda, qalbidagi farog'at o'rnini tushkunlik egallab oladi. Daraxtning olis shovullashi qahramonimizni botinini egallab, ichi "men" idagi tug'yonlarni alangalatadi. Qahramonimiz moddiy va ma'naviy hayot yo'llarida chuqur o'yg'a toladi. Tashqi men va ichki men arosatida qolgan qahramon ko'nglidagi borini to'kishga jazm qiladi: "Nihoyat men bir yo'lni tanlab olaman: borini boricha yozishga intilaman. Haqiqatning momataloq va dahshatli yuz-ko'ziga tik qarashga botinaman: bor, nima bo'lsa bo'lsin!.." [1].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hozirgi kunda adabiyotshunoslar badiiy asarning qiymatini voqealar rivojidadagi xima-xillik bilan emas, balki adabiy qahramonlarning ruhiyati tahlili bilan o'lchamoqdalar. Epik turlardan aynan qissa janri inson ruhiyati talqinida keng imkoniyatlarga ega. "Yolg'izlik" qissasi ham aynan janriga qo'yilgan bosh talabga ko'ra syujetning yagona qahramon hayotini lirizm va drammatizmga moyil holatlarini uyg'unlikda tasvirlash ustuvorligiga asoslangan. Ijodkorning vijdon prizmasidan o'tgan har bir talqin chetda qolmagan. Asar bevosita ekzistensializm falsafiy-estetik oqimda yozlgan. Qissaning umumiy ruhida his-tuyg'uga ko'p e'tibor berilganligi bois uning estetik qimmatini ham oshib borgan. Qissa qahramoni ba'zi o'rinlarda isyon qiladi, ba'zida esa itoatga keladi. Modern asarlarda ruhiyat tasviri absurd, ma'nisizlik olamidagi erksiz shaxs mohiyatini ifodalashga qaratilganligi bois ba'zi o'rinlarda qahramonning yaratganga qarata aytgan

o'kinchlari kitobxonni chuqur o'yg'a toldiradi. Garchi dunyo modernism, postmodernism undan keyingi bosqichlarda ilgarilab ketgan bo'lsada o'zbek adabiyotida modernizm hali to'liq shakllanmaganligi bois kitobxonlarning barchasi ham noan'anaviy uslub mahsulidan birdek zavqlana olmaydi. Xususan, "Yolg'izlik" qissasida ijodkor qahramon ruhiy olamini ochishda xilma-xil badiiy tasvir vositalardan foydalangan. Qissada ijodkor "men" tilidan o'zining ruhiy holatini yaqqol ochib beradi. Ayniqsa, tush, monolog, detallar, ramzlar nisbatan ko'proq qo'llanilgan. Yuqoridagi vositalardan, ayniqsa, monolog juda ko'p qo'llanilgan. "Yolg'izlik" qissasini ichki nutq – monolog qissa deyishimiz mumkin, sababi asarda kechinma, voqealar, syujet tarkibidagi ba'zi unsurlar qahramon yoki roviyning monologi asosida kechadi. Ichki nutq – obrazlarning nutqi hisoblanib, "Yolg'izlik" qissasida qahramon ijodkorning "men"i hisoblanib, muallif qahramon vazifasini o'taydi. Shuni alohida ta'kidlash kerak-ki, ichki nutq qahramonning o'z-o'ziga, botiniga, ruhiy dunyosiga qaratiladi, boshqalar nutqiga emas. Ijodkor ichki nutq masalasiga katta e'tibor qaratadi va qator nasriy asarlarida tadrijiy ravishda mukammallashib boradi. Qissada ichki nutqning turli ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Monolog-iqror ham asarning salmoqli qismini egallaydi. Unda qahramon donishmand faylasuf qiyofasida namoyon bo'ladi hamda hayotiy xulosalari namoyon bo'ladi: "Mening odamlarda ishim yo'q. Ular menga na tuzukroq do'st bo'loldilar, na jiddiyroq dushman. Mening ishim Senga tushgan va Sendangina hal bo'ladi. Balki odamzot orqalidir, ammo sening huzuringda, Sening istaging va irodang-la, Sen-da – O'zingda yechildi mening ko'nglimdagi chigallik, ey Xoliqi Koinot!.. [2].

### **NATIJAR VA MUHOKAMA**

Modern qissalariga xos bo'lgan umumiy jihat: xarakterdagi faollik, ishchanlik o'rnini ko'nikuvchalik, xayolchanlik egallaydi. Qissa qahramoni ma'nisizlik olamini yuqoridagi talqinlarga tayanib, shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: Botindagi alam → chuqur iztirob → begonalashuv → isyon = itoat! Asarda qahramonning Mutlaqi vojibga isyoni, iltijolari salmoqli o'rinni egallaydi. U yaratgandan gunohlarini kechishini so'rab nola qilmaydi, balki

inson fitratida u gunohlar qilishga moyillik borligini, qilayotgan ishlarini go'yoki gunoh emasligini tushuntirmoqchidek taasurot uyg'otadi. Lekin inson har qanday holatida ham taqdiridan rizo bo'lib yashash falsafasi asar syujet chiziqlarida ayonlashadi. Ingliz adabiyotida tasniflangan yolg'izlikning solitude (tanholik holati), loneliness (yolg'izlik), alienation (begonalashuv) kabi turlaridan ijodkorning "Yolg'izlik" qissasi qahramonining holati aynan solitude – tanholik holati bo'lib, ijobiy ma'nodagi yolg'izlik bo'lib, bu holat qahramonni ruhan poklanib, fikrlarini jamlab olishga yordam beradi, natijada inson o'zining Ichki "Men"ini kashf qiladi, oxirida huzurga, sokinlikka erishadi. "Inson dunyoga yolg'iz keladi, inson dunyodan yolg'iz ketadi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, U.Hamdham ham yolg'izlik motivini sarlavha darajasiga olib chiqqan ijodkorlardan biridir. "Yolg'izlik" qissasida aks ettirilgan tanholik insonni poklaydigan, ma'rifatga chorlaydigan, hayot mohiyatini anglashga yordam beradigan, tafakkur orqali yuksalishga undaydigan psixologik holat sifatida aks ettirilgan. Navoiy salmoqli asarlari talqini yolg'izlik motivi ruhiy kamolotga erishuv bosqichi, insonlarni Allohning bir zarrasi sifatidagi g'oyalari ijodkor qissalariga qatiga singdirilgan.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Хамдамов У. "Ёлғизлик". Т.: Янги асп авлоди, 2017. – Б. 12.
2. Хамдамов У. "Ёлғизлик". Т.: Янги асп авлоди, 2017. – Б. 64.
3. Rahmat R. "Vatan haqida qo'shiq"ni tinglab...// Kitob dunyosi gazetasi N16 (187).
4. Sodiq S. Isyonning hududi bormi... itoatning-chi?// O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 2004-yil, 12-noyabr.
5. Rahimjonov N. Bugunning qahramoni kim?// O'zbek tili va adabiyoti. - 2001.- №6. - S. 8-12.
6. Normatov U. Tafakkur yog'dusi. –Т., 2006..
7. Sabirdinov A. Ma'naviyat va ma'rifat chashmalari –Toshkent:. Akademnashr. 2016.
8. Эшонкулов Ж. Ўзбек фольклорида туш ва унинг бадий талқини. ф.ф.д. дисс.автореферати, –Т., 2010.